

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti



FAN

YERDAN FOYDALANISH EKOLOGIYASI

MAVZU
05

**Yerdan foydalanishda ekologik
xavfsizlik**



MUQUMOV ABDUG'ANI
MURATOVICH



YERDAN FOYDALANISH
KAFEDRASI



REJA:

1.Ekologik xavf va ekologik xavfsizlik tushunchasi.

2.Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning asosiy talablari.

3.Ekologik xavfsizlik tizimi.

4.Xozirgi bosqichda yer resurslaridan foydalanish ekologiyasining asosiy muammolari.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Barchamizga ma'lumki, fan-texnika tarakqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. Ekologik halokat, ayrim hududlarda qilingan taxminlarga ko'ra, oldini olib bo'lmaslik darajasida xavf tug'dirmoqda. Ammo uning tarqalishini kamaytirish, texnogen va ijtimoiy-madaniy oqibatlar shiddatini to'xtatish zarur. Buning uchun turli soha mutaxassislari o'zlarining ekologiya bilimlarini oshirib, rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rmoqlari kerak. Salbiy ekologiya oqibatlarning asosiy sabablaridan biri yer, suv, mineral xom ashyolardan foydalanish tamoyillarini buzilishidir. Aynan shu tamoyil iqtisodiyot tarmoqlarining kam samarali-ekstensiv yo'ldan borishi uchun qulay sharoitlar yaratdi, resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyaning keng joriy qilinishiga to'sqinlik qildi, shuningdek, atrof muhitga zarar yetkazgan holda rejani bajarish kabi g'ayri ekologiya yondashuvni keltirib chiqardi.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Markaziy Osiyo qishloq xo'jaligini ekstensiv rivojlantirish, yer va suvdan tartibsiz foydalanish natijasida Orol dengizi quridi. Unga yaqin joylashgan yerlarning ekologiya tizimi, hayvonot va o'simliklar dunyosi chuqur inqirozga uchradi. Paxta yetishtirishga ajratilgan yer maydonlarining anchagina qismini kasallik qo'zg'atuvchi zararkunandalar va kasallangan o'simliklar bosgan. Meteorologiya markazi ma'lumotlariga qaraganda Orol dengizining qurigan va qariyb bir necha ming kvadrat kilometr ga cho'zilgan tubidan har yili million tonnalab ko'z ilg'amas darajadagi chang va tuz shamol bilan uchirib ketilishi natijasida. Orol bo'yi xududlarda ekologiya xavfsizlik darajasi ortib bormoqda. Ekologiya holatning salbiy o'zgarishiga hududlarning metrologik sharoitlari ham ta'sir qiladi.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Markaziy Osiyo hududida quyosh haroratining yuqori bo'lishi inson organizmida qon aylanishini kuchaytiradi, ko'p miqdorda terlatib, ayrim kimyoviy moddalarning teri orqali so'rilishiga, xatto me'yornomada ko'rsatilgan eng kichik raqam ham halokatli zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda ruhiy (85 foizga) va asab xastaliklari (109 foizga), nafas olish a'zolari xastaliklari (108 foizga) ko'payadi. Tarkibida nitrobirikmalar mavjud bo'lgan suv va oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat iste'mol qilish moddalar almashinuvi, tayanch-harakat va asab tizimlari xastaliklarini, irsiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi. Respublikada Chirchiq, Olmaliq, Ohangaron, Angren, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va boshqa bir qator joylarda kimyoviy, neft-kimyoviy hamda mikrobiologik tarmoqlar korxonalarining, ko'p quvvat va suv talab qiladigan ishlab chiqarish vositalarining ko'pligi tufayli ekologiyaning salbiy o'zgarishi keskinlashdi. Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan aluminiy zavodining salbiy oqibatlari Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlarida sezildi. Natijada anor va xurmoning hosildorligi va sifati pasayib ketdi, aholi salomatligi esa, yomonlashdi.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Inson xayotini turli ekologik xavflardan asrash keyingi vaktlarda eng muxim masalalardan bo'lib qoldi. Ekologik xavf-xatarning sabablariga texnologik va ekologik inqirozlarni kiritish mumkin. Ekologik xavf iqtisodiyotning nazoratsiz rivojlanishi, texnologiya va texnikaning orqada qolishi, tabiiy va antropogen avariya va falokatlarning yuz berishi natijasida inson, o'simlik xamda xayvonot olami yashaydigan muxitning buzilish extimolligi, buning oqibatida tirik organizmlarning mavjud bo'lish sharoitlariga moslashishi buziladi.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Ekologik xavf-xatarning eng kuchli ob'ektlari AES, kimyo sanoati, neftni qayta ishlaydigan korxonalar, truboprovodlar, transport xisoblanadi. Albatta, bulardan tashqari bizga sezilmaydigan texnologik chikindilar xavo, cuv, tuproq, o'simlik va boshqa organizmlarni sekin-asta zaxarlab kelmoqda, bular ma'lum vaqtdan so'ng to'satdan katta xududga kuchli ta'sir qilishi xam mumkin. Inson salomatligiga texnogen chikindilarning faol ta'siri to'grisida 70—yillarda bir qator olimlar o'g'oxlantirgan edilar. Masalan, yashash muxitida radiatsiya, kimyoviy birikmalarning ta'siri kabi mutagen omillarning keskin ko'payishi kuzatilsa, u xolda insonning genetik axboroti buzilishi mumkin. Bu xodisa insonning genetik asosining buzilishi xavfidan darak beradi. Buning tasdiqi sifatida keyingi 30 yil mobaynida rivojlangan mamlakatlarda nuqson bilan tug'ilgan bolalar miqdori keskin ko'payganligini ko'rsatish mumkin.

EKOLOGIK XAVF TUSHUNCHASI

Misol uchun, Rossiyaning Perm shaxrida yodorganik va ftorganik sintez ishlab chiqariladigan mintaqada 12-17 yoshdagi o'g'il bolalarning 57%, qizlarning 82%i qalqon bezining giperplazi(to'qimalarda strukturali elementlar sonining ortishi), buyrak yukorisining buzilishi (disfunksiya) va boshqa kasalliklar bilan xastalangan. Ufa, Yekaterinburg, Samarada 3 yoshgacha bo'lgan yosh bolalar jussasining me'yordan kichikligi xarakterli va boshqalar. Ko'rg'oshin va simob chiqindilari nixoyatda taxlikali. Ularning ozgina mikdori xam bolalarning bosh miyasi o'sishiga jidiy ta'sir ko'rsatadi. Saraton kasalini o'rganuvchi xalkaro agentlikning xabariga ko'ra xozirgi vaktida ishlab chiqarish jarayonida taxminan 50 turdagi modda kishini rak kasali bilan og'rishiga ta'sir etishi mumkin, epidemiologiya tadkikotlarining ko'rsatishicha, taxminan 100 turdagi moddalar kanserogenli xususiyatga ega ekan. Bularning barchasi kuchli ekologik xavf to'g'risida xabar beradi. Bizningcha, eng avvalo sanoat korxonalarida chikindilarning eng kam mikdorda tashqariga chiqishini ta'minlashga erishish o'ta dolzarbdir.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

O'zbekiston Respublikasida ilk ekologik muammo va tushunchalar 1950 yillardan, Orolning qurishi oqibatida yuzaga kela boshladi. Keyinchalik Orol dengizining qurishi Orolbo'yi mintaqasida ijtimoiy ekologik vaziyatning og'irlashishiga olib keldi. Har yili Orolning qurigan tubidan 15-75 million tonnagacha tuz va chang ko'tarilib, juda katta hududda havo, tuproqlarning ifloslanishiga olib kelmoqda. Orolbo'yida tabiiy va antropogen cho'llanishning sur'atlari ortib bormoqda. Ichimlik suvida tuzlar miqdori 2-4 g/l ni tashkil qiladi va suv sarfi ayrim hududlarda 5 litrdan oshmaydi (norma 200-300 l). Butunjahon yovvoyi tabiat (WWF), Global Footprint Network jamg'armalari va Londonning zoologik jamiyati mutaxassislari hamkorlikda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, 1970 yildan buyon Yerdagi yovvoyi hayvon va qushlarning soni 3,43 ming turga, tirik sayyoraning indeksi esa 52% ga kamaygan, ya'ni havoda va quruqlikda yashaydigan jonivorlar turi 76% ga, yer ustida yashaydiganlar va suvda istiqomat qiladiganlar soni 39% ga qisqargan. Har yili inson faoliyati oqibatida 11 mln. gektar tropik o'rmonlar kesilib, nobud bo'ladi. Bu o'rmonlarni tiklash borasidagi ishlardan 10 barobar ko'pdir. Har kuni atmosferaga 60 million tonnaga yaqin karbonat angidrid chiqarilib, bu havoning isishiga, o'z navbatida esa dunyo okeanidagi suv sathining ko'tarilishiga olib kelmoqda.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

So'nggi yillarda mamalakatimizda atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish masalalariga katta e'tibor qaratilib, hatto fuqarolarning munosib ekologiya va atrof-muhitga bo'lgan huquqlarining kafolatlarini O'zbekiston Konstitutsiyasida belgilash borasida fikrlar yangramoqda. Fuqarolarning munosib atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlari ta'minlanishida ushbu muhim ijtimoiy huquqning konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, aksariyat xorijiy davlatlarning konstitutsiyalarida ekologiyaga oid maxsus boblar mavjud. Masalan, Fransiyaning 1958 yilgi konstitutsiyasi 69-moddasida ekologik qonunlar, farmonlar yoki farmon loyihalarini ishlab chiqish, shuningdek qonunchilikka takliflarni kiritish huquqiga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik kengashning vakolatlari mustahkamlangan. Ta'kidlash joizki, Fransiyada atrof-muhitni muhofaza qilish siyosatini ishlab chiqish va takomillashtirishga har doim kompleks va konseptual yondashuv mavjud bo'lgan. Mamlakatning 2000 yilda qabul qilingan Ekologiya kodeksi atmosferani, suv resurslarini, tuproqni muhofaza qilish talablari va chiqindilar bilan ishlash qoidalari belgilangan muhim kodekslardan hisoblanadi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligida atrof-muhitni muhofaza qilishning huquqiy masalalarini tartibga soluvchi umumiy hujjat qabul qilinmagan. Buyuk Britaniyada atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni boshqarish vakolatiga ega bo'lgan davlat organlari tizimi mavjud bo'lib, ular Atrof-muhitni muhofaza qilish vazirligi tomonidan boshqariladi. Vazirlik asosan muvofiqlashtiruvchi funksiyalarni bajaradi.

Buyuk Britaniyada 1970 yildan boshlab Atrof-muhitni ifloslanishdan muhofaza qilish komissiyasi faoliyat yuritib kelmoqda va u ekologik faoliyat samaradorligini nazorat qiluvchi va bu sohada strategik takliflar ishlab chiquvchi mustaqil nodavlat tashkilot maqomiga ega.

Germaniya konstitutsiyasida atrof-muhitni muhofaza qilish, suvdan foydalanish masalasiga oid normalar bor. Konstitutsiyaning 89-moddasi birinchi qismiga ko'ra federatsiya imperiya suv yo'llarining egasi hisoblanadi va suv yo'llarini o'z organlari orqali boshqaradi. Agar suv yo'li bir necha o'lka hududidan o'tsa, federatsiya manfaatdor o'lkalar taklif qilgan o'lkaga boshqaruvni topshirishi mumkin. Suv yo'llarini boshqarishda, ularni rivojlantirish va qurishda o'lkalar bilan kelishilgan holda tabiatni muhofaza qilish va suv xo'jaligi ehtiyojlariga qat'iy amal qilish talab etiladi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Konstitutsiyamizning 54-moddasida mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi shartligi, 50-moddasida fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majbur ekanligi belgilangan. Biroq ekologik xavfsizlikni ta'minlash bilan bog'liq ayrim eng muhim normalar o'z ifodasini topmagan.

Hozirgi sharoitda O'zbekiston Konstitutsiyasida:

- **har bir inson hayoti va sog'lig'i uchun qulay atrof tabiiy muhitga, uning holati to'g'risida ishonchli ma'lumotga ega bo'lish;**
- **xuddi shunday huquqbuzarliklar sodir etilishi va insonning ushbu huquqlarining buzilishi natijasida sog'lig'iga yoki mulkiga yetkazilgan zararni qoplash huquqiga ega ekanligini;**
- **davlat atrof-muhitni muhofaza qilish va tiklash maqsadida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustidan nazoratni amalga oshirishini;**
- **mansabdor shaxslar tomonidan odamlar hayoti va sog'lig'iga tahdid soluvchi faktlar va holatlarni yashirilishi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka sabab bo'lishini belgilash taklif qilinadi.**

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Inson va fuqarolarning qulay atrof tabiiy muhitga bo'lgan huquqlarining konstitutsiya darajasida mustahkamlab qo'yilishi xalqaro huquq normalariga ham mos keladi. Binobarin, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga oid xalqaro huquqiy hujjatlari mavjud. Xususan, BMTning 1992 yilgi "Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi konvensiyasi, 2015 yilgi "Iqlim bo'yicha Parij bitimi" va shu kabi bir qator xalqaro hujjatlarini misol sifatida ko'rsatish mumkin.

Butun dunyoda ekologik barqarorlikka erishish, yer yuzining hozirgi holatini tubdan o'zgartirish uchun xalqaro hamkorlik, ekologik qonun talablarini buzganlik uchun javobgarlikning qat'iy bo'lishi, aholining yuqori darajadagi ekologik ong va madaniyatini oshirishning o'zigina kifoya qilmaydi. Bu borada barchamiz mas'uliyat hissi bilan yashashimiz kerak. Franklin Delano Ruzvelt aytaganidek, tabiat in'om etgan tuhfalarni buzadigan xalq o'z ildiziga bolta uradi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Tabiiy muhitni muhofazalash, uning imkoniyatlaridan oqilona foydalanish hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangandir. Xalqning iste'mol mollariga bo'lgan talabini qondirish maqsadida, yer osti konlarini qazib va artezan suvlaridan foydalanish, dehqonchilik qilinadigan yerlarni, shahar va qishloklarni kengaytirish, turli xil sanoat korxonalarini qurish bilvosita tabiiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu ta'sirni oldindan ko'ra bilib, tegishli chora-tadbirlarni qo'llash, ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish, foydali tomonlarini oshirish choralari ko'rilmasa, tabiatning jonli qismi o'la boshlaydi. Fan-texnika tarakqiyoti biz yashab turgan dunyoni tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi.

Ekologik halokat, ayrim hududlarda qilingan taxminlarga ko'ra, oldini olib bo'lmaslik darajasida xavf tug'dirmoqda. Ammo uning tarqalishini kamaytirish, texnogen va ijtimoiy-madaniy oqibatlar shiddatini to'xtatish zarur. Buning uchun turli soha mutaxassislari o'zlarining ekologik bilimlarini oshirib, rejalashtirilayotgan ishlari bilan tabiiy muhitga zarar yetkazmaslik choralari ko'rmoqlari kerak. Salbiy ekologik oqibatlarning asosiy sabablaridan biri yer, suv, mineral xom ashyolardan foydalanish tamoyillarini buzilishidir.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Aynan shu tamoyil iqtisodiyot tarmoqlarining kam samarali-ekstensiv yoʻldan borishi uchun qulay sharoitlar yaratdi, resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyaning keng joriy qilinishiga toʻsqinlik qildi, shuningdek, atrof muhitga zarar yetkazgan holda rejani bajarish kabi gʻayri ekologik yondashuvni keltirib chiqardi. Markaziy Osiyo qishloq xoʻjaligini ekstensiv rivojlantirish, yer va suvdan tartibsiz foydalanish natijasida Orol dengizi quridi. Unga yaqin joylashgan yerlarning ekologik tizimi, hayvonot va oʻsimliklar dunyosi chuqur inqirozga uchradi. Paxta yetishtirishga ajratilgan yer maydonlarining anchagina qismini kasallik qoʻzgʻatuvchi zararkunandalar va kasallangan oʻsimliklar bosgan. Meteorologiya markazi maʼlumotlariga qaraganda Orol dengizining qurigan va qariyb bir necha ming kvadrat kilometr ga choʻzilgan tubidan har yili million tonnalab koʻz ilgʻamas darajadagi chang va tuz shamol bilan uchirib ketilishi natijasida. Orol boʻyi hududlarda ekologik xavfsizlik darajasi ortib bormoqda.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Ekologik holatning salbiy o'zgarishiga hududlarning metrologik sharoitlari ham ta'sir qiladi. Markaziy Osiyo hududida quyosh haroratining yuqori bo'lishi inson organizmida qon aylanishini kuchaytiradi, ko'p miqdorda terlatib, ayrim kimyoviy moddalarning teri orqali so'rilishiga, xatto me'yornomada ko'rsatilgan eng kichiq raqam ham halokatli zaharlanishga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitlarda ruhiy (85 foizga) va asab xastaliklari (109 foizga), nafas olish a'zolari xastaliklari (108 foizga) ko'payadi. Tarkibida nitrobirikmalar mavjud bo'lgan suv va oziq-ovqat mahsulotlarini uzoq muddat iste'mol qilish moddalar almashinuvi, tayanch-harakat va asab tizimlari xastaliklarini, irsiy nuqsonlarni keltirib chiqaradi.

Bir qator mutaxasislarning ma'lumotlariga ko'ra respublikamizning Chirchiq, Olmaliq, Ohangaron, Angren, Farg'ona, Marg'ilon, Navoiy va boshqa bir qator joylarida kimyoviy, neft-kimyoviy hamda mikrobiologik tarmoqlar korxonalarining, ko'p quvvat va suv talab qiladigan ishlab chiqarish vositalarining ko'pligi tufayli ekologikning salbiy o'zgarishi keskinlashdi. Tojikistonning Tursunzoda shahrida joylashgan aluminiy zavodining salbiy oqibatlari Surxondaryo viloyatining Sariosiyo, Denov, Sho'rchi va Oltinsoy tumanlarida sezildi. Natijada anor va xO'rmoning hosildorligi va sifati pasayib ketdi, aholi salomatligi esa, yomonlashdi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Respublikamiz mustaqillikka erishgach, sog'lom avlodni tarbiyalab o'stirish uchun alohida ahamiyat berilmoqda. Yosh avlodning va umuman tabiatning jonli qismini sog'lom o'sishi tabiatning jonsiz qismini tashkil qilgan yer, suv va havoning tozaligiga bog'liqdir. Shu sababli, respublika xukumati ekologik muhitni sog'lomlashtirishga va Orol dengizi muammosiga alohida e'tibor bermoqdalar. O'zbekiston Konstitutsiyasida fuqarolar tabiatni muhofaza qilishlari, uning boyliklarini qo'riqlashlari shart eqanligi ko'rsatilgan. Keyingi yillarda tabiatni muhofazalash, Orol dengizi, ekologik talim va tarbiya muammolariga bag'ishlangan xalqaro va respublika ilmiy-uslubiy konferensiyalari bo'lib o'tdi; natijada ekologik nazorat kuchaytirilib, zamonaviy texnologiya va ishlab chiqarish usullariga o'tish hisobiga chiqindilar miqdorining kamayishi kuzatilmoqda

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash endilikda birinchi darajali va kechiktirib bo'lmaydigan vazifaga aylandi. Chunki, ichimlik suvlarining ifloslanganligi, joylarda atmosfera xavosini chikindilar bilan jiddiy to'yinganligi, buning natijasida aholi orasida turli kasalliklar tarqalganligi, sug'orma dehqonchilik uchun mo'ljallangan yerlarning sho'rlanib, yaylovlarning mahsuldorligini pasayib borayotganligi qishloq xo'jalik ishlab chiqarishiga salbiy ta'sir etayotganligi mamlakat miqyosida tub o'zgarishlarni amalga oshirish zarurligini uqtiradi. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash borasida bir kator bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan masalalarni xal kilish lozim bo'ladi. Birinchi galda ekologik (bioekologik, geosistemali, biosferali) monitoringni amalga oshirish ustuvor ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu turdagi monitoring hozirda turli muassasalar va tashkilotlar tomonidan amalga oshirib kelinmokda, lekin ularning ko'lami va egallagan xududi hozir talabga mutlaqo javob bermaydi. Chunonchi, tuproqning sanoat va kimyoviy ashyolar bilan ifloslanishi (Respublika Boshgidromet xizmatiga yuklatilgan) faqat ayrim qishloq jamoalari hududi bo'yicha nazorat qilinadi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Bunda barcha viloyatlarning sug'oriladigan yerlari nazarda tutilmagan, xech bo'lmaganda xar bir viloyat bo'yicha tanlab olingan xo'jaliklarini ma'lum uchastkalari nazarda tutilganda maqsadga muvofiq bo'lar edi. Faqat shundagina respublika xududi bo'yicha sug'oriladigan yerlarni texnogen ifloslanishi bo'yicha tegishli xulosalar chiqarish mumkin bo'ladi. Xuddi shunday axvol suv xavzalarining ifloslanishi, atmosfera xavosining chikindilar bilan to'yinishi va boshqa sohalarda xam mavjud, ularning belgilangan me'yorda bo'lishi tabiiy muxit bo'yicha zarur bo'lgan monitoring axborotlarini olish va mavjud ekologik vaziyat to'g'risida anik xulosa chiqarishga imkon beradi. Ekologik ekspertiza yangi kuriladigan sanoat korxonalarini uchun xos. Lekin mantiqan qaraganda ishlab turgan barcha sanoat korxonalarini, gidrotexnik inshootlar va boshqa muxandislik ob'ektlar uchun muntazam ekspertiza o'tkazish zarur. Atrof - muxitni aslida eskidan ishlab kelayotgan sanoat korxonalarini ifloslantirib kelmokda. Binobarin, ekologik ekspertiza barcha korxonalarini nazoratga olishi shart. Shundagina tabiiy muxitda tozalanish boshlanishi mumkin.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Ekologik vaziyatni boshqarish va tegishli tadbirlar majmuasini qo'llash uchun negiz sifatida turli masshtablarda ekologik va tabiatni muhofaza qilish xaritalarini yaratish joiz. Bu xaritalar respublika xududida mavjud ekologik vaziyatlarni nazorat qilish, ularning o'zgarishlarini o'rganish, tegishli choratadbirlarni rejalashtirish imkonini beradi. Mavjud xaritalar muvaqqat bo'lib, ularning xar yili yangi ma'lumotlar bilan yangilab turilishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Xar bir viloyat ma'lum masshtabda ekologik va tabiatni muhofaza qilish xaritalariga ega bo'lishi va disketlarga tushirilib kompyuterlar orkali mutaxassislar xamda raxbariyat (shaxar, viloyat xokimlari, Respublika Vazirlar Maxkamasi) ga foydalash uchun topshirilishi darkor. Kompyuterlar orqali aloqa barcha viloyatlardan olingan tasvirlar yordamida Toshkentda respublika bo'yicha jamlanma monitoringli axborot olinish imkoni bo'ladi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Ekologik vaziyatni boshqarish va tegishli tadbirlar majmuasini qo'llash uchun negiz sifatida turli masshtablarda ekologik va tabiatni muhofaza qilish xaritalarini yaratish joiz. Bu xaritalar respublika xududida mavjud ekologik vaziyatlarni nazorat qilish, ularning o'zgarishlarini o'rganish, tegishli choratadbirlarni rejalashtirish imkonini beradi. Mavjud xaritalar muvaqqat bo'lib, ularning xar yili yangi ma'lumotlar bilan yangilab turilishi amaliy ahamiyat kasb etadi. Xar bir viloyat ma'lum masshtabda ekologik va tabiatni muxrfaza qilish xaritalariga ega bo'lishi va disketlarga tushirilib kompyuterlar orkali mutaxassislar xamda raxbariyat (shaxar, viloyat xokimlari, Respublika Vazirlar Maxkamasi) ga foydalash uchun topshirilishi darkor. Kompyuterlar orqali aloqa barcha viloyatlardan olingan tasvirlar yordamida Toshkentda respublika bo'yicha jamlanma monitoringli axborot olinish imkoni bo'ladi.

EKOLOGIK XAVFSIZLIK TUSHUNCHASI

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash shuningdek, me'yoriy ko'rsatkichlar va boshqa kabul kilingan ma'lum andozalarga rioya qilishga xam bog'liqdir. Sanoat, avtotransport chiqindilari eng kam xavfsiz ko'rsatkichlarga kadar kamaygan bo'lishi, ikkilamchi resurslar to'liq qayta ishlanib ulardan foydali elementlar ajratib olinishi zarur. Eng muximi, is rofgarchilikka chek qo'yilib, tabiatdan extiyojga yarasha boyliklarni ajratib olib, chiqindilarni chiqarmaslik tamoyilida ish tutishga o'tishdan iborat. Tabiatdan boyliklarni olishda «kim oshdi» tamoyilidan voz kechib uni boyitish, resurslarni qayta tiklash, kamayib borayotganlaridan extiyotkorlik bilan foydalanish, bu borada mukobil variantlar, ya'ni o'rnini bosadigan boshqa resurslardan foydalanishga o'tish kabi tamoyillarni barcha joylarda, xamma ishlab chiqarish korxonalarida qo'llashga o'tish tabiatni asrash, uni e'zozlash o'z navbatida ekologik xavfsizlikni ta'minlashni kafolatlaydi.

XULOSA

Ekologik xavf tushunchasi

insonning hayotiy muhim manfaatlariga va tabiatga xo'jalik va boshqa faoliyatning, tabiiy hamda texnogen jarayonlarning salbiy ta'siri oqibatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat

Ekologik xavfsizlik tushunchasi

tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining xo'jalik va boshqa faoliyat, tabiiy hamda texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarining ehtimoliy salbiy ta'siridan himoyalanganlik holati

Nazorat savollari

1. Ekologik xavf va xavfsizlik tushunchasi nimani anglatadi?
2. Ekologik xavfsizlikni ta'minlashning qanday asosiy talablari mavjud?
3. O'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlarini muhofaza qilishni ta'minlovchi qaysi ekologik xavfsizlik talablarini bilasiz?
4. Yer resurslari muhofazasini ta'minlovchi qaysi ekologik xavfsizlik talablarini bilasiz?
5. Ekologik xavfsizlik tizimi to'g'risida qanday tushunchalarga egasiz?
6. Sizning fikringizcha O'zbekistonda ekologik xavfsizlikni ta'minlash va ekologik tahdidlarning oldini olish uchun qanday tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq?
7. Biologik resurslar tushunchasi nimani anglatadi?
8. Sizning fikringizcha yer resurslaridan samarali foydalanishni taminlash uchun qanday tamoyillarga alohida e'tibor qaratildi?

Mavzuni o'zlashtirish bo'yicha tavsiya qilinadigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar:

1. Баратов П. Табиатни муҳофаза қилиш. Т.: «Ўқитувчи», 1991, 254 б
2. Константинов В.М. Экологические основы природопользования / В.М. Константинов, Ю.Б. Челидзе. – М.: Академия, 2001. – 208с
3. S.Buriyev, D. Maxkamova, V.Sherimbetov. Ekologiya va atrof muhit muhofazasi.Т.: 2018.248 б.

Qo'shimcha adabiyotlar :

4. П. С. Султонов, Б. П . Ахмедов. Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш асослари , Ғ.Ғулом нашриёти, 2004. – 232 б.
5. А.А.Рафиқов,Экология. Узбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти.2004,-144 б.

Internet resurslari:

1.[http://www, Ziyonet. Uz/](http://www.Ziyonet.Uz/).

2. [http:// www, guz. Ru/](http://www.guz.Ru/)

E'TIBORINGIZ UCHUN RAXMAT!!!



Muqqumov Abdug'ani
Muratovich



“Yerdan foydalanish”
kafedrası



+ 998 945811900



a.mukumov@tiame.uz



@Abdugani Muqumov